



## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SANKT-PETERBURGGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahriga keldi.

“Pulkovo” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Leningrad viloyati va Sankt-Peterburg rahbariyati kutib oldi.

Mamlakatimiz yetakchisi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etadi.

Bo‘lajak tadbir doirasida Hamdo‘stlik mamlakatlari yetakchilari yilning asosiy yakunlarini sarhisob qiladilar hamda MDH makonida ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqadilar.

O‘ZA

## SANOAT TARMOQLARIDAGI LOYIHALAR VA REJALAR TANQIDIY KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-dekabr kuni hududlarda elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Sanoatdagi tarkibiy o‘zgarishlar va sharoitlar natijasida so‘nggi besh yilda ushbu uchta tarmoqda ishlab chiqarish 2,6 barobar oshgan, ularning sanoatdagi ulushi 7 foizga yetgan. Shuningdek, 231 turdagi yangi mahsulotlar o‘zlashtirilib, eksport 1,6 milliard dollarni tashkil etgan.

Joriy yilning o‘zida elektrotexnika 163 million dollarlik 39 ta, kimyo sanoatida 70 million dollarlik 17 ta va farmatsevtikada 87 million dollarlik 57 ta korxonaga ishga tushdi.

Shu bilan birga, bu tarmoqlarda foydalanilmagan imkoniyatlar hali ko‘p. Ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirish elektrotexnika 50 foizga, kimyo sanoatida 40 foizga, farmatsevtikada 18 foizga ham yetmaydi.

Hududlarda tashkil qilingan zonalar hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. 116 ta korxonaga olib kelingan 85 million dollarlik sanoat uskunasi ishga tushmasdan turibdi. 727 ta korxonaga to‘liq quvvatda ishlaymagan.

Yig‘ilishda shu kabi kamchiliklar tanqidiy tahlil qilinib, dolzarb vazifalar belgilandi.

— Hokimliklar sanoat tarmoqlari bilan uzviy bog‘liqlikda ishlab, hududlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishi, loyihalarni ko‘paytirishi zarur. Shundaygina joylarda

iqtisodiy o‘shish, ish o‘rni, budjetga tushum bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Kelgusi yilda mazkur 3 tarmoqda 12 milliard 700 million dollarlik 24 ta yirik loyiha boshlanishi qayd etildi. “Navoiyazot”da polivinilxlorid va Qo‘ng‘irotda kalsiylangan soda quvvatlarini kengaytirish, Qorako‘lda metanoldan olefin olish, Samarqandda maishiy texnika va avtomobillar uchun metall listlar ishlab chiqarish loyihalari shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarga kerak bo‘ladigan qurilish materiallari va asbob-uskunalarini yetkazib berishga mahalliy korxonalarini jalb etish muhimligini ta‘kidladi.

Shuningdek, tarmoq va hududlar birgalikda ishlab, elektrotexnika 2,1 milliard dollarlik 190 ta, kimyo sanoatida 3,8 milliard dollarlik 139 ta, farmatsevtikada 1,5 milliard dollarlik 110 ta o‘rta va kichik loyihalarni shakllantirgan. Yig‘ilishda Prezident ularning quvvati, yaratilajak mahsulotlar turi va ish o‘rniga e‘tibor qaratib, loyihalarni jadallashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Mutasaddilarning loyihalar ijrosi, hududlar va tarmoqlarning o‘zaro bog‘langan ish tizimi yuzasidan axboroti eshitildi.

O‘ZA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING HAQIQIY A‘ZOLARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 173-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligini keng nishonlash, mamlakatimiz ilm-fani nufuzini yanada oshirish, ilmiy-texnologik salohiyatini yuksaltirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hay‘ati va tegishli fan ixtisosliklari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan haqiqiy a‘zolarining tavsiyasiga asosan quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi etib tasdiqlansin:

#### Fizika-matematika fanlari bo‘yicha

Axmedov Babomurot Jurayevich — Fanlar akademiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya instituti laboratoriya mudiri

Abdullayev Fatkulla Xabibullayevich — Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti bosh ilmiy xodimi  
Ro‘zikov Utkir Abdulloyevich — Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori o‘rinbosari

#### Kimyo fanlari bo‘yicha

Tulyaganov Dilshat Ubaydullayevich — Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti kafedra mudiri

Davomi 2-betda

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING 80 YILLIGI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH OLIM VA TADQIQOTCHILARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, fan-texnika taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi ko‘p yillik samarali mehnati, nufuzli xorijiy muassasalar bilan o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, boy ma‘naviy merosimizni xalqaro miqyosda targ‘ib etish, ilg‘or innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qo‘shgan ulkan hisssasi, yuksak bilimli va malakali ilmiy xodimlarni tayyorlash, yoshlarimizni buyuk allomalarimizga munosib avlod etib tarbiyalash, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlansin:

#### “O‘zbekiston Respublikasi fan arbi” faxriy unvoni bilan

Turayev Abbasxan Sabirxonovich — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Bioorganik kimyo instituti direktori, akademik

#### “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Yusupova Diloram Yunusovna — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, akademik

#### “Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Namozov Shafaat Sattarovich — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo instituti laboratoriya mudiri, akademik

#### “Do‘stlik” ordeni bilan

Gusakova Svetlana Dmitriyevna — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘simlik moddalar kimyosi instituti bosh ilmiy xodimi, professor  
Djalilov Abdulaxat Turapovich — “Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti” davlat unitar korxonasi direktori, akademik

Davomi 2-betda



## BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



### Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishidan keyingi o‘ylar

XXI asrda anglab yetgan haqiqatlarimizdan biri shuki, mamlakatlar o‘rtasida ziddiyatlar avj olaversa, biror davlatda ro‘y bergan baxtsiz hodisaga bepisand qarasaq, befarq bo‘laversak, oddiy xalq o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilsa, bunday vaziyatda taraqqiyot inqirozga yuz tutadi, insoniy munosabatlar izdan chiqadi.

Ochiq aytamiz, bugungi siyosiy diplomatiya allaqachon yangi o‘zanini topgan. Bu yo‘l “kuch diplomatiyasi”ga asoslangani bilan g‘oyat tahlikali va xatari bo‘lib qolmoqda. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur‘atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz.

Bunday sharoitda tinchlikparvar, taraqqiyparvar davlatlar oldida nihoyatda murakkab va og‘ir yo‘l qoladi. Bu — milliylikni, o‘zlikni saqlash yo‘li. Yangi O‘zbekiston ham ana shu yo‘lda.



Davomi 3-betda



## SHUKUH

### “PREZIDENT SOVG‘ASI” KARVONI BOLALARGA QUVONCH ULASHISH UCHUN YO‘LGA TUSHDI



Har birimiz Yangi yil bayramini intiqlik bilan kutamiz. Ayniqsa, bolajonlar. Bayram tadbirlaridagi bir-biridan quvnoq, sehrli namoyishlardan Qorbobo-yu Qorqiz sovg‘asigacha ularga olam-olam zavq bag‘ishlaydi. Bayram quvonchidan har bir bola bahramand bo‘ladi. Mamlakatimizda xayrli an‘ana — “Prezident sovg‘asi” bu yil ham Yangi yil bayrami munosabati bilan o‘z egalari — bolajonlarga quvonch yetkazish uchun hududlarga yuborildi.

Davomi 2-betda









